

Date: 7th August-2026

YANGI O‘ZBEKISTONNI BARPO ETISHDA MA’NAVIY QADRIYATLARNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI

Baratova Fotima Shavkat qizi

Nizomiy nomidagi O‘zMPU Tarix fakulteti “Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va
huquq ta’limi” yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonida ma’naviy qadriyatlarning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni tahlil qilinadi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, milliy o‘zlikni anglash hamda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashdagi ahamiyati ilmiy jihatdan yoritilgan. Shuningdek, ma’naviy qadriyatlarning zamonaviy islohotlar bilan uyg‘unligi va ularning Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasidagi o‘rni asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, ma’naviy qadriyatlar, jamiyat taraqqiyoti, milliy qadriyatlar, ma’naviyat, fuqarolik jamiyati, yoshlar tarbiyasi, milliy o‘zlik, islohotlar, barqaror rivojlanish.

Аннотация: В данной статье анализируется роль духовных ценностей в общественном развитии в процессе построения Нового Узбекистана. Рассматривается значение национальных и общечеловеческих ценностей в развитии гражданского общества, духовном воспитании молодежи, сохранении национальной идентичности и обеспечении социальной стабильности. Особое внимание уделено взаимосвязи духовных ценностей с современными реформами и их значению в реализации Стратегии развития Нового Узбекистана.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, духовные ценности, развитие общества, национальные ценности, духовность, гражданское общество, воспитание молодежи, национальная идентичность, реформы, устойчивое развитие.

Abstract: This article analyzes the role of spiritual values in the development of society during the process of building New Uzbekistan. It examines the scientific significance of national and universal values in strengthening civil society, fostering the spiritual development of youth, preserving national identity, and ensuring social stability. The study also highlights the harmony between spiritual values and contemporary reforms, emphasizing their importance in the implementation of the Development Strategy of New Uzbekistan.

Keywords: New Uzbekistan, spiritual values, social development, national values, spirituality, civil society, youth education, national identity, reforms, sustainable development.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar mamlakat taraqqiyotining yangi bosqichini boshlab berdi. Ushbu bosqich davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini modernizatsiya qilish, inson qadrini ulug‘lash hamda xalq farovonligini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi



Date: 7th August-2026

asosida amalga oshirilmoqda. Mazkur g'oyaning asosiy maqsadi demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish, iqtisodiy taraqqiyot bilan bir qatorda ma'naviy yuksalishni ham ta'minlashdan iboratdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mustaqillikning 33 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida Yangi O'zbekistonni bunyod etishda beshta ustuvor yo'nalishga alohida e'tibor qaratilayotganini ta'kidladi. Jumladan, ta'lim sifatini oshirish, tadbirkorlikni rivojlantirish, korrupsiyaga qarshi kurashish, adolatli sud tizimini shakllantirish, sog'liqni saqlash va ekologik barqarorlikni ta'minlash davlat siyosatining muhim yo'nalishlari sifatida belgilandi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, barcha muammolarning yechimi, avvalo, sifatli ta'lim va samarali tarbiyaga bog'liqdir. Shu bois bugungi kunda ta'lim tizimini takomillashtirish bilan bir qatorda, yosh avlodning ma'naviy kamolotiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy rivojlanish va siyosiy islohotlar ma'naviy yuksalish bilan uyg'unlashgan taqdirdagina jamiyat barqaror taraqqiyotga erishadi. Shu jihatdan ma'naviy qadriyatlar Yangi O'zbekiston taraqqiyotining muhim nazariy va amaliy asoslaridan biri hisoblanadi. Ma'naviy qadriyatlar har qanday xalqning tarixiy xotirasi, milliy o'zligi va madaniy taraqqiyotini belgilovchi asosiy omillardandir va ular asrlar davomida shakllangan urf-odatlar, an'analar, axloqiy me'yorlar, diniy bag'rikenglik, ilm-fan, madaniyat va ma'rifat kabi tushunchalarni o'zida mujassam etadi. O'zbek xalqining boy tarixiy merosi, buyuk allomalari va ma'rifatparvar ajdodlari yaratgan ilmiy-ma'naviy boylik bugungi taraqqiyotning mustahkam poydevorini tashkil etmoqda. Tarixdan ma'lumki, Movarounnahr hududi IX–XII asrlarda jahon sivilizatsiyasining eng yirik ilmiy va madaniy markazlaridan biri bo'lgan. Muhammad al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy kabi buyuk mutafakkirlarning ilmiy va ma'naviy merosi nafaqat Sharq, balki butun insoniyat taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan. Ularning ilm-ma'rifatga, komil inson tarbiyasiga va ezgulik g'oyalari asoslangan qarashlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida aynan ana shu boy tarixiy merosni asrab-avaylash, uni zamonaviy taraqqiyot bilan uyg'unlashtirish muhim vazifa sifatida belgilangan, ma'naviy merosni chuqur anglagan jamiyatgina o'z kelajagini mustahkam poydevor asosida qura oladi. Shu ma'noda ma'naviy qadriyatlar nafaqat tarixiy meros, balki jamiyatni birlashtiruvchi, fuqarolarda Vatanga sadoqat, qonunga hurmat, halollik, bag'rikenglik va mas'uliyat tuyg'ularini shakllantiruvchi muhim omildir. Ayniqsa, globallashtirish sharoitida yoshlarni turli mafkuraviy tahdidlardan himoya qilishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Yangi O'zbekiston taraqqiyotining asosiy tamoyillaridan biri inson qadrini ulug'lash va kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirishdan iboratdir va ushbu tamoyil jamiyat taraqqiyotini faqat iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan emas, balki insonning ma'naviy kamoloti, intellektual salohiyati va axloqiy fazilatlar bilan ham baholashni nazarda tutadi. Shu bois davlat siyosatida ma'naviy yuksalish masalasi ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, xalqning ma'naviy dunyosi qanchalik boy bo'lsa, mamlakat taraqqiyoti ham shunchalik barqaror va izchil bo'ladi. Shu sababli Yangi O'zbekistonni

Date: 7th August-2026

barpo etishda ta'lim sifati, ilm-fan, madaniyat va ma'rifatni rivojlantirish davlat siyosatining ajralmas qismiga aylandi. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida inson qadrini ulug'lash, adolat va qonun ustuvorligini ta'minlash, zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirish, yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish hamda milliy qadriyatlarni asrab-avaylash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Mazkur vazifalarning barchasi ma'naviy qadriyatlar bilan uzviy bog'liq bo'lib, jamiyat taraqqiyotining muhim omili hisoblanadi. Bugungi globallashuv sharoitida dunyo miqyosida mafkuraviy raqobat kuchayib bormoqda. Turli yot g'oyalar, ommaviy madaniyatning salbiy ko'rinishlari hamda axborot xurujlari yoshlarning ma'naviy dunyosiga ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday sharoitda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni asrab-avaylash, ularni ta'lim va tarbiya tizimi orqali yosh avlod ongiga singdirish strategik ahamiyat kasb etadi. Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, har qanday taraqqiyotning asosi ilm-fan va ta'lim bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bilan birga, ta'lim jarayoni faqat bilim berish bilan cheklanmasdan, shaxsning ma'naviy kamolotini ta'minlashi ham zarur. Zero, bilim va ma'naviyat uyg'unligi barkamol avlodni shakllantirishning eng muhim shartidir. Yangi O'zbekistonda ta'lim tizimini tubdan isloh qilishga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Maktabgacha ta'limdan boshlab oliy ta'limgacha bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimining takomillashtirilishi, yangi oliy ta'lim muassasalari tashkil etilishi, xalqaro standartlarning joriy etilishi hamda ilmiy tadqiqotlarga e'tiborning kuchaytirilishi buning yaqqol ifodasidir. Biroq zamonaviy ta'lim faqat innovatsion texnologiyalarni joriy etish bilangina cheklanmaydi. U yoshlarni milliy g'urur, tarixiy xotira, vatanparvarlik, bag'rikenglik, qonunga hurmat va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashni ham o'z ichiga oladi. Aynan mana shu jihatlar ta'limning tarbiyaviy funksiyasini belgilaydi. Ajdodlarimizning ilmiy-ma'rifiy merosi bu borada bebaho manba hisoblanadi. Abu Nasr Forobiy komil inson tarbiyasini ilm va axloq uyg'unligida ko'rgan bo'lsa, Abu Ali ibn Sino ta'limning inson kamolotidagi hal qiluvchi o'rnini alohida ta'kidlagan. Alisher Navoiy esa komil inson g'oyasini ezgulik, adolat va ma'rifat bilan bog'lagan. Ushbu qarashlar bugungi ta'lim siyosatining mazmun-mohiyatiga hamohangdir. So'nggi yillarda O'zbekistonda ilgari surilgan Uchinchi Renessans g'oyasi mamlakat taraqqiyotining strategik konsepsiyasiga aylandi. Mazkur g'oya milliy davlatchilik tarixida ilm-fan, ma'rifat va yuksak ma'naviyatga asoslangan yangi uyg'unish davrini barpo etishni nazarda tutadi. Ma'lumki, Markaziy Osiyo tarixida ikki buyuk uyg'unish davri mavjud bo'lgan. Birinchi Renessans IX–XII asrlarda, Ikkinchi Renessans esa XIV–XV asrlarda yuz bergan bo'lib, ushbu davrlarda mintaqa jahon ilm-fani va madaniyatining yetakchi markazlaridan biriga aylangan. Bugungi Uchinchi Renessans g'oyasi ana shu tarixiy an'analarni zamonaviy taraqqiyot talablari bilan uyg'unlashtirishga xizmat qilmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, Yangi O'zbekistonni bunyod etishning eng muhim sharti – ilm-fan, ta'lim va ma'naviyatni rivojlantirishdir. Chunki ma'rifatli jamiyatgina innovatsion taraqqiyotga erishishi, iqtisodiy raqobatbardoshligini oshirishi va milliy manfaatlarini himoya qila olishi mumkin. Uchinchi Renessansning asosiy tayanchi sifatida yoshlarning intellektual salohiyati, ilmiy tafakkuri va ma'naviy dunyosini rivojlantirish belgilangan. Shu bois mamlakatimizda kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, tarixiy

Date: 7th August-2026

merosni o'rganish, buyuk ajdodlarimizning ilmiy asarlarini keng targ'ib qilish, zamonaviy ilmiy markazlar va oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xulosa qilsak, Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida ma'naviy qadriyatlar jamiyat taraqqiyotining eng muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Chunki har qanday davlatning barqaror rivojlanishi nafaqat iqtisodiy islohotlar va siyosiy yangilanishlar, balki fuqarolarning ma'naviy kamoloti, milliy o'zligini anglashi hamda tarixiy xotirasiga ham bevosita bog'liqdir. Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar inson qadrini ulug'lash, qonun ustuvorligini ta'minlash, ta'lim sifatini oshirish va yoshlarni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashga qaratilgan. Bu jarayonda ma'naviy qadriyatlar jamiyatni birlashtiruvchi, fuqarolarda vatanparvarlik, fidoyilik, halollik, bag'rikenglik va mas'uliyat tuyg'ularini shakllantiruvchi asosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda. Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, ilm-fan va ma'rifat rivojlangan jamiyatlarga taraqqiyotning yangi bosqichiga ko'tarila olgan. Markaziy Osiyoda yuz bergan Birinchi va Ikkinchi Renessans davrlari buning yorqin misolidir. Bugungi kunda ilgari surilgan Uchinchi Renessans g'oyasi ham ana shu buyuk tarixiy merosni zamonaviy taraqqiyot talablari bilan uyg'unlashtirishga xizmat qilmoqda. Mazkur jarayonda yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Shuningdek, globallashuv sharoitida yoshlarni turli mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish, tarixiy xotirani mustahkamlash, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va ularni zamonaviy ta'lim tizimi bilan uyg'unlashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu jihatdan ma'naviy qadriyatlar Yangi O'zbekiston taraqqiyotining mafkuraviy va ma'rifiy poydevori sifatida jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Yangi O'zbekistonni barpo etishda ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirish, ularni ta'lim va tarbiya tizimi bilan uyg'unlashtirish hamda yosh avlod ongiga chuqur singdirish mamlakatning uzoq muddatli taraqqiyotini ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi. Zero, ma'naviy barkamol, bilimli va vatanparvar avlod – Yangi O'zbekistonning eng katta boyligi va ishonchli tayanchidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi Farmoni. Toshkent, 2022.
3. Mirziyoyev Sh. M. O'zbekiston davlat mustaqilligining 33 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. – Toshkent, 2024.
4. Beruniy A. R. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. – Toshkent: Fan, 1968.

